O‘zMU XABARLARI
ВЕСТНИК НУУз
ACTA NUUz

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN CHIQA BOSHLAGAN

2023
1/10/1

Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi

Bosh muharrir:
I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Y.S.ERGASHOV – f-m.f.d., professor.
R.X. SHIRINOVA – fil.f.d., professor
Tahrir hay’ati:
Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.
Ashirov A.A. – t.f.d., prof.
Balliyeva R. – t.f.d., prof.
Malikov A.M. – t.f.d., prof.
Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.
Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.
Mo‘minov A.G. – s.f.d., prof.
Nishonova O.J. – f.f.d., prof.
Abdullayeva N.B. – f.f.d., prof.
Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.
Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.
Utamuradov A. – f.f.n., prof.
Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.
Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.
Mengliyev B.R. – fil.f.d., prof.
Sa’dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.
Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.
Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas’ul kotib: **Z.A.PARDAYEV**

TOSHKENT – 2023

MUNDARIJA

Tarix

Allamuratov Sh. Amudaryoda mahalliy kemachilik (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)....4
Anarkulov S. Shahar antropologiyasi tadqiqotlarning alohida yo‘naligi sifatida....7
Begaliev J. Lifestyle of ancient peoples: according to historical data of Beruni....11
Boxodirov I. Birinchi jahon urushi Kavkaz frontidagi harbiy harakatlarda 2-Turkiston armiya korpusining ahamiyati....14
Gaybullayeva Y. XIX-XX asrlarga oid O‘zbekiston muzey fondlarida saqlanayotgan o‘zbek ayollarining kiyim-kechaklari....18
Yormatov F. Keksa avlod vakillarining jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligi hamda yoshlar tarbiyasidagi o‘rni....21
Mulkamonov X. Termiz davlat unuversitetida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish tadbirlari va ularning natijalari....24
Nazarova D. Turizm infratuzilmasini rivojlanishida Toshkent muzeylarining o‘rni....27
Oblomuradov N. Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar – sifat va samaradorlikni ta’minlashning ustuvor vazifalari....30
Раишев Т. Развитие фармации в Туркестанском крае во второй половине XIX – начале XX века....33

Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik

Abdullayeva L. Sociocultural competency and foreign language communicative competence....37
Abdulmadjidova M. Maktab o‘quvchilarida kasbiy ko‘nikmalarni shakllanishining psixologik xususiyatlari....40
Alimov A. Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ijtimoiy faollikning ahamiyati va xizmat ko‘rsatish odoblari talqini....43
Alimov Z. Yuksak axloqiy kadrlarni tayyorlashda media kompetenlikka qo‘yilgan talablar....46
Allamova Sh. Intellektual muvaffaqiyatli o‘smirlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari bo‘yicha chet el olimlarining qarashlari....49
Arziqulov H., Xayriyeva Sh. Differensial tenglamalardan ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etishda CASE-STUDY texnologiyasidan foydalanish....52
Atamuratova F. O‘smir o‘quvchilarni salomatlikka yo‘nalganligini rivojlantirishning psixologik omillarini ilmiy manbalarda o ‘rganilishi....56
Axmedova D. Xotin-qizlar sotsial maqomining transformatsiyasi va gender muvozanatdagi dinamik o‘zgarishlar tahlili....59
Ashirova S. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari....63
Berdaliyeva G. Pedagogik jarayonlarga raqamlili yondashishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlili....66
Dehqonova M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish....69
Jabbarov U. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish....72
Ibragimov R. Kasb-hunar maktablari o‘quvchilarini kasbiy tayyorlashda fizikani kompyuter vositalaridan foydalanib o‘qitishning ahamiyati....76
Izzatullayev B. AQSH ning Markaziy Osiyo tashqi siyosatida raqamli diplomatiyani olib borish usullari....79
Imonova M. Shaxs taraqqiyotida sibling munosabatlarining ahamiyati....82
Ismoilov D. Kredit modul tizimiga asoslangan o‘qitish tizimida fizikadan amaliy mashg‘ulotlarini olib borish metodikasi....85
Isomiddinov E. O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh qilishning konseptual asoslari....88
Каримова В. Методы системного анализа в управлении качеством процессов повышения квалификации руководящих кадров высших образовательных учреждений....91
Karimova M. O‘smir yoshidagi qizlar oilaviy hayot haqidagi tasavvurlariga ta’sir etuvchi omillar....94
Qodirov A. Reflektiv kompetensiyaning mohiyati va til o‘qitishdagi ahamiyati....97
Qosimov A., Dadajonov O. “Quyosh chiqishidan oldin” dramasida naturalizm ta’siri....100
Latipova M. Talabalarga adabiyot darsini modellashtirishga o‘rgatish metodikasi....103
Maxmanov E. Bo‘lajak muhandislarning fizikadan amaliy kompetentligini shakllantirish....106
Muzaffarov N. XVI asr Movarounnahr ijtimoiy – siyosiy hayotida Shayx Hudoydodi Valining tutgan o‘rni....110
Musurmanov U. Informatika o‘qituvchilarini zamonaviy metodik texnologiyalar asosida tayyorlash....113
Muhammadiyeva N. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni amaliy jarayonlarga tayyorlash metodikasini takomillashtirish muamosining konseptual asoslari....116
Navruzov R., Iminjanov M., Jabbarov Z. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida harbiy topografiya fanini o‘rgatishning istiqbollari....119
Nasimov S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning maktabga adaptasiyasi....123
Ne’matov B. Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish....126
Nurmatova D. Bo‘lajak muhandislarga ilmiy va o‘quv bilish metodlari asosida fizika o‘qitishning metodik modelini qurish....129
Oripova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini diagnostika qilish usullari....132
Ortiqov M. Temir yo‘l transporti sohasiga oliy ma’lumotli mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari va takomillashtirish muammolari....135
Raximova G. Shihobuddin Suhravardiy milliy ahloqiy merosini o‘rganishning tarixiy jihatlari....138
Rahimova D. Ijtimoiy falsafaning jamiyatdagi o‘rni va asosiy funktsiyalari....141
Raxmatov A. O‘quvchilarning konstruktorlik qobiliyatlarini ijodiy masalalarni yechish orqali takomillashtirish....144
Rahmatova N. Yosh oila tushunchasi, mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari....148
Rashidova Sh. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy omillari....152
Ro‘zimurodov S. Mahallada yoshlarni sog‘lom muhitni yuksaltirishning tarixiy – axloqiy asoslar....155
Suyunov R. Akademik litseylarda ta’lim sifatini boshqarishni pedagogik aspektlari....158
Tashmetov T. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda g‘oyaviy omillar dinamikasi va tendensiyalari....161
To‘g‘onboyev G‘. Musobaqa davrida yuqori malakali gandbolchilarning hujum harakatlarini nazorat va tahlil qilish....165
Turayev S. Bo‘lajak dasturchilarga dasturlash tillaridan ta’lim jarayonida foydalanish metodikasi....168
Turg‘unboyev J. Zamonaviy davrda AQSH “Aql markaz”lari faoliyatining asosiy jihatlari....171

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/10/1]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K: 37.026

Bo‘ritosh NE’MATOV,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDPIning pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD D.Shabbozova taqrizi asosida

IMPROVING THE CREATIVE ACTIVITY OF MODERN PRIMARY CLASS TEACHERS

Annotation
This article is written about the forms and methods of improving the creative activity of primary school teachers, the model of improving the creative activity of primary school teachers and the factors, principles and means of improving the creative activity of primary school teachers.
Key words: Culture, cognitive, acmeological, axiological factors, students, natural sciences, natural literacy.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация
В данной статье написано о формах и методах совершенствования творческой активности учителей начальных классов, модели совершенствования творческой активности учителей начальных классов и факторах, принципах и средствах совершенствования творческой активности учителей начальных классов.
Ключевые слова: Культура, познавательный, акмеологический, аксиологический факторы, студенты, естествознание, природоведческая грамотность.

ZAMONAVIY BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KREATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya
Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirish shakl va metodlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ foliyatini takomillashtirish modeli va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish omillari, tamoyil va vositalari haqida yozilgan.
Kalit so‘zlar: Madaniyat, kognitiv, akmeologik, aksiologik omillar, o‘quvchilar, tabiiy fanlar, tabiiiy savodxonlik.

Kirish. Uzluksiz ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha pedagogik kreativ faoliyatini nazorat qilish va baholash, avvalo, uning maqsadi, mazmuni, shakllari, omillari, vositalari va ob’ektlari namoyon qilishni zaruriyat deb biladi.

Ma’lumki, maktabda o‘quv jarayonining asosiy shakli sinf-dars tizimi.

Dars jarayonida o‘qituvchilarga fanlar bo‘yicha bilimlar asoslari o‘rgatiladi, ularning shaxsiy sifatlari rivojlantiriladi, bilimi, ko‘nikma malaka va kompetentsiyalari shakllantiriladi. Dars berish jarayonida o‘quvchining kreativ faoliyatini, pedagogik mahoratini, namoyon qilishi uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Boshlang‘ich ta’limni kreativ tashkil etishning nazariy asoslari, ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning ijodiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish, bevosita shaxsda kreativlik qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha turli usul va metod masalalari mamlakatimiz olimlaridan B.Adizov, N.Dilova, R.Ibragimov, G.Ibragimova, M.M. Madraximova, R.A.Mavlonova, N.A.Muslimov, X.J.Xudoyqulovlar, shuningdek, kreativ fikrlash psixologiyasi G.Davletshin, E.G‘oziyev, Z.Nishonovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar. O‘qituvchi - mutaxassislar va nazariyotchilar har bir turdagi dars mashg‘ulotlariga tayyorlanishda, nazorat qilish orqali baholashni o‘tkazish qoidalariga rioya qilishlari kerak. O‘quvchilarni baholash, savol-javob qilishda juda ehtiyotkor bo‘lishlik lozim, ularni shaxsiyatiga tegmaslik zarur. O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida norozilik chiqmasligi kerak. CHunki bunday norozilik yaxshilikka olib kelmaydi. CHunki ta’lim jarayonini samarali boshqarish va pedagogik noroziliklarni hal etish, juda muhim kasb etadi. Ma’lumki o‘qituvchi ta’lim jarayonida rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, natijalarni baholash va taxlil qilish kabi vazifalarni bajaradi.

O‘qituvchi tomonidan ta’lim jarayonini boshqarish - o‘qituvchi tomonidan muayyan mavzu bo‘yicha yoki nazorat ishlarini o‘tkazish maqsadida tashkil etilayotgan o‘quv mashg‘ulotlarining ilmiy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirilishi, olib borilishi, natijalarning tahlil etilishini ifodalaydi.

Odatda, ta’lim jarayonini samarali boshqarish o‘qituvchilar tomonidan o‘quv mashg‘ulotlarini ilmiy-pedagogik va ilmiy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirish, olib borish va natijalarni xolis, tizimli tahlil etishga doir bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarga ega bo‘lishiga bog‘liq. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilar hamda malaka oshirish kurslarining tinglovchilarida bu boradagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi tomonidan ta’lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

O‘qituvchi ta’lim jarayonini tashkil etishni rejalashtirishda taqvim mavzuyi yoki darslar rejalarini tuzishga e’tibor qaratadi. O‘qituvchining ta’lim jarayonini tashkil etishdagi roli o‘quvchilar oldiga o‘quv masalalarini qo‘yish, ularning samarali bajarilishi uchun zarur sharoitni yaratishdan iborat. Agar ta’lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatini boshqarishda o‘qituvchi to‘g‘ri yo‘naltirish vazifasini bajarsa, nazorat o‘quvchilar faoliyatining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayoni bo‘yicha natijalarni baholash va tahlil qilishda o‘qituvchi ta’lim jarayonning qanday kechganligini bilish,

yutuqlar omillarini o‘rganish, yo‘l qo‘-yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini belgilashga e’tibor qaratish lozim.

Imom G‘azzoliy aytganidek: “O‘zingga nisbatan kichiklardan qanday muomalani kutsang, ularga nisbatan ham huddi shunday muomalada bo‘lgin”. Kaykovus o‘g‘liga nasihat qilib deydi: “Halq oldida gapiradigan so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Haloyiq sening so‘zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar. So‘zning martabasini kishi orqali bilmaydilar, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi. Ya’ni bir so‘zni bir ibora bilan aytsa bo‘ladi, eshitgan kishining esa ko‘ngli parishon bo‘ladi, shu so‘zni boshqa bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining ko‘ngli baxra oladi.

Ey, farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgin, ularga rioya qilgin, so‘zlaganingda ma’noli gapir, bu notiqlikni alomatidir. Har bir so‘zga quloq sol, tezlik qilma. O‘ylamasdan so‘zlama. Har bir so‘zni o‘ylab gapir, to aytgan so‘zingdan pushaymon bo‘lmagaysan. Sovuq so‘z so‘zlama... Ko‘p bilu, oz so‘zla: kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlli kishi ko‘p so‘zlamaydi deganlarki, jim o‘tirish salomatlik garovidir”.

Donishmandlarimiz aytganlaridek:“Diling og‘rib, asabiylashishni tilamasang, johil, ablah kishilar bilan so‘zga borishib o‘tirma”.

Insonga ziynat bag‘ishlaydigan fazilat odob-axloq. Axloq ilmi yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib boradi. Har bir odam bir olam bo‘lgani kabi, o‘sha insonning odob-axloqi ham juda murakkab bo‘lib, uni ikkinchi olam desak adashmaymiz.

Go‘zal fe’l-atvorning nishonasi o‘n ikki narsadir: birinchi nishonasi - yaxshilik; ikkinchi - insofli bo‘lish; uchinchisi - boshqa odamdan ayb qidirmaslik; to‘rtinchisi - biror odam nojo‘ya harakat qilsa, uni yaxshi yo‘lga solish; beshinchisi - bir odam o‘z aybiga iqror bo‘lib, uzr aytsa, uzrini qabul qilish; oltinchisi - boshqalar uchun mashaqqatni o‘z ustiga olish; yettinchisi - faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik; sakkizinchisi - ochiq yuzli, shirin so‘zli bo‘lish; to‘qqizinchisi - muhtojlarning hojatini chiqarish; o‘ninchisi - muloyim va xushmuomala bo‘lish.

O‘n birinchi – kamtarlik, insonning go‘zal fazilatlaridan. Ayniqsa, ko‘pchilik bilan muomala qiladigan kishilar nihoyatda kamtar, shirinsuxan bo‘lishlari kerak. Dag‘allik, kishilarga samimiy munosabatda bo‘lmaslik, ularning talab-ehtiyojlariga e’tiborsizlik kabi salbiy odatlar jamiyatimiz uchun nizolar manbai bo‘lsa-da, hamon uchrab turadi.

Kamtar kishi kibrga aslo yaqin yurmaydi. CHunki kibr va manmanlik, takabburlik kishini xor, xalq qancha ilm va davlat sohibi bo‘lsa ham bir pulcha qadr va qimmati bo‘lmaydi.

Shunday ekan, o‘qituvchi, murabbiy, ota-ona va har bir kishining faxrli burchlaridan biri bo‘lib, unda kreativ faoliyat qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. O‘qituvchi esa o‘g‘il-qizlarda ana shunday fazilatlarni uzluksiz ravishda tarbiyalab borishdan iborat, shundagina noroziliklar kam bo‘ladi.

O‘n ikkinchi- suxandonlik xushodob, madaniyatli kishilar odamlarga nisbatan e’tiborli va sezgir bo‘ladilar. Halqimizda “Suxandonlik salomdan, ish intizomdan boshlanadi”, degan hikmatli ibora bor. Darhaqiqat, salom bilan boshlangan suhbat, yomon niyatni qaytarib, yopiq eshiklarni ochar va nifoqlarni yo‘qotar, nizolarni kamaytirar ekan. Ochiq yuzli, xushxulq, xushmuomala odam andisha va farosat egasi bo‘ladi,hamda kreativlik salohiyati yetarli darajada rivojlanganlikgini ko‘rsatadi.

Shirinso‘zlik va go‘zal nutq hech qachon, hech qaerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo‘li bor, bu ham bo‘lsa, tinimsiz shirin so‘zlashash mashq qilmoqlik. Bu esa, asosan, ko‘p kitob o‘qish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Muomala o‘qituvchilik kasbini egalagan insonning kimligini ko‘rsatuvchi yuzidir.Ular nizolardan uzoqda bo‘ladilar va kreativlik san’atiga ega mutaxassislardir.

Nizoni hal qilishning ma’muriy usullari, nizoga kirishuvchilar manfaatlarini kuch bilan bostirish; ularni boshqa ishga o‘tkazish; nizo qatnashchilarini turli ko‘rinishlarda o‘zaro ajratish; axloq komissiyasining qarori; rahbar buyrug‘i; sud qarori.

Pedagogik kreativ salohiyati, mahoratni, faoliyatni Ilmiy-metodik jihatdan, pedagogik norozilik ishtirokchilariga pedagogik yoki pedagogik yordam berish orqali ko‘rsata olish imkoniyatiga ham ega bo‘lishlari zarur.

Tadqiqot ishida boshlang‘ich ta’limi bo‘yicha ta’limiy-tadbirlarning boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta maktab DTS bo‘yicha qoniqarli bajarilmayotgani mashg‘ulotlarining muhim bo‘g‘ini, o‘quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarlik ko‘rishi, tashkil etishi va uni o‘tkazish darajasi hamda mazkur ishlarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tutgan o‘rnini alohida o‘rganishga to‘g‘ri keldi.

Bu borada mazkur amaliyotning mazmuni, tashkil etish shakllari, mehnat ob’ektlari, shart-sharoitlari pedagog olimlardan N.S.Sayidaxmedov, B.I.Muranov, R.M.Sarsenbayeva va boshqalarning ilmiy tatqiqot ishlarida o‘rganilgan. Biroq maktabda uyushtiriladigan sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etilgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativ faoliyati to‘g‘risida, sifat va baholash darajasi to‘g‘risida fikr berilmagan.

Ilmiy-tadqiqot natijasida, shu narsa aniq bo‘ldiki, kreativ faoliyat asosida ishlab chiqarish amaliyoti davrida o‘quvchilarga ishlab chiqarish guruhlarni tashkil etib, uni xo‘jalik maydonchalari bo‘ylab amaliyotni bajarish rejasini, ya’ni ishtirok etish kunlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Mazkur amaliyot, odatda, iyun yoki iyul oylarida o‘tkaziladi hamda rejalashtiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bunday amaliyotni o‘tkazish uchun uning vaqtini, kuchlarini ham amaliyot mazmuni belgilab olishlari kerak, uni tashkil etish usullarini, shakl va metodlarini, vositalarini aniqlashlari zarur. CHunki amaliyot quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

DTSda amaliyot bo‘yicha tegishli o‘quv soatlari ajratilgan bo‘lsa ham, hozirgi vaqtda mamlakatimiz umumta’lim maktablarida uning mazmuni, shakl va metodlari qonuniy ravishda ishlab chiqilmaganligi bois uni amalda ro‘yobga chiqarish bo‘yicha bir talay qiyinchiliklar tug‘ilmoqda. Shunga qaramasdan mazkur masalani xal etishda, ta’lim tizimining kreativ faoliyatini aniqlash sifatlari orqali baholash tizimli darajasi aniqlandi. Shu bois, ushbu ishda kreativ faoliyatni ro‘yobga chiqarishning ilmiy-metodik tomonlarini yoritishga harakat qilindi.

Kreativ faoliyatni amalga oshirishdi, amaliyot dasturida quyidagilar belgilanishi zarur: amaliyotning aniq maqsadi va vazifalari; amaliyot davrida ish mazmuni; ishlab chiqarish va jamoat topshiriqlarining aniq tavsifnomasi; mehnat amaliyot davrida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning mazmuni va rejasi; ishlab chiqarish ob’ektlariga uyushtiriladigan sayohatlarning mazmuni va rejasi; amaliyot davrida yuritiladigan ish, o‘quv, metodik, ma’muriy hujjatlarga qo‘-yiladigan talablar; amaliyot vaqtida mehnatni me’yorlash, pedagogik nazorat, amaliyot bo‘yicha sinov-imtixonlarining shakllari va mazmuni; amaliyot yakunida hisobotlarni tayyorlashga qo‘-yiladigan talablarni boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilishi shart deb hisoblaymiz.

Kreativ faoliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi qobiliyatini aniqlash davrida yuritiladigan barcha hujjatlarning nusxalari amaliyot uchun maxsus bo‘lgan mehnat ta’limi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida saqlanadi. Shu bois mehnat ta’limi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mehnat amaliyotiga

rahbarlik qilishi va o‘tkazishi bo‘yicha kreativ faoliyatni nazorat qilish va baholashda 100 balli shkaladan foydalaniladi.

Nazoratchi tomonidan o‘quvchining amaliyotga rahbarlik faoliyatini nazorat qilish va baholashni uch xil mezonda belgilash maqsadga muvofiqdir:

mehnat amaliyotga tayyorgarlik darajasi yuqori saviyada - 86-100 ball.

mehnat amaliyotga tayyorgarlik darajasi - o‘rtacha saviyada - 71-85 ball.

mehnat amaliyotiga tayyorgalik darajasi past saviyada - 55-70 ball.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini tashkil etish va mashg‘ulotlarni o‘tkazishga tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida kreativlik yondashuv orqali pedagogik nazoratda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari chorvachilik faoliyatini namoyon etish orqali kreativlik faoliyatni, qobiliyatni sinfdan va maktabdan tashqari paytlarda tashkil etishda, pedagogik mahorat, umumpedagogik qobiliyat tushunchalarni ilmiy-metodik jihatdan o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tushuntirish o‘ziga xos bo‘lgan ilmiy muhim jihatdan kasb etadi. Ushbu tadbirlarni o‘tkazishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tashkilotchilik, rahbarlik mahorati namoyon bo‘ladi va u o‘quvchilar faoliyati jarayonida tayyorlangan o‘tkazilgan va bajarilgan ishlarni kreativlik sifati bilan o‘lchanadi.

Xulosa. Kreativ faoliyatni o‘rganishda mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish fanlarining davlat ta’lim standartlari asosida umumiy o‘rta ta’lim maktabi ish faoliyati mazmuni va tuzilishiga mos holda mehnat ta’limi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy mahorat tavsifnomasi ishlab chiqildi va amalga joriy qilish yo‘llari sinab ko‘rildi. Mazkur bobda mehnat ta’limi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kreativ faoliyati mahoratini, qobiliyatini nazorat qilish va baholashda testlar tizimidan foydalanish metodikasi yaratilib, amaliyotga joriy qilish mexanizmlari ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari (qadim zamon va o‘rta asrlar). -T. “O‘qituvchi”, 2001.
2. Akkari, Abdeljalil. (2018). International agenda Education 2030: An uncertain consensus or a tool to mobilize education actors. British Journal of Educational Studies. 5. 1-12.
3. Babayev E. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. //Fan sohasida innovatsiyalar: nazariya va amaliyot, Iqtidorli talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-Toshkent, 2011-yil 12-may.
4. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. –спб: СПГУТД. 2006.
5. Дружинин В.Н. Структура и логика психологического исследования. М., 1993. – с.168.
6. Egamberdiyeva N. Talaba-yoshlarni tarbiyalashda kompetentlik va kreativlik pedagogik faoliyat. –T.:”Navro‘z”, 2013.
7. Fayzullayev O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. -T.: “Falsafa va huquq”, 2006, 238 bet.